

## MINTAQANI IJTIMOIIY-IQTISODIY TARAQQIY ETIRISHDA INNOVATSION INVESTITSIYALARNING O'RNI.

**Temirov Jo'raqodir Abduljalilovich**

*Buxoro Davlat Texnika Universiteti "Xizmat ko'rsatish va raqamlashtirish" fakulteti  
"Iqtisodiyot va menejment" kafedrasida talabasi*

**Annotatsiya:** *Innovatsion investitsiyalar mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy yuksaltirishning bosh omili bo'lib, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yaratadi, raqobatbardoshlikni oshiradi va yangi ish o'rinlarini shakllantiradi. Shunday ekan innovatsion investitsiyalarni iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, mahsulot tannarxini kamaytirish hamda hududiy ijtimoiy – iqtisodiy bazani modernizatsiya qilish orqali aholi turmush darajasini yuksaltiradi. Innovatsion investitsiyalar hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirib, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi strategik resurs hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Investitsiya, Mintaqaviy iqtisodiyot, Iqtisodiy rivojlanish, Xorijiy investitsiyalar, Davlat-xususiy sheriklik, Innovatsiyalar, Ish o'rinlari yaratish, Infratuzilma rivoji, Soliq imtiyozlari, Barqaror iqtisodiy o'sish.*

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda innovatsion investitsiyalar muhim strategik omil hisoblanadi. Innovatsion investitsiyalar iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ular mintaqalarda yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Innovatsion investitsiyalar orqali ishlab chiqarish jarayonlari modernizatsiya qilinadi, resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari kengayadi hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligi oshadi. Mintaqaviy rivojlanishda innovatsion investitsiyalar ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Bu esa yangi ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarning amaliyotga tezroq joriy etilishiga imkon yaratadi. Shuningdek, innovatsion investitsiyalar infratuzilmani rivojlantirish, sanoatni modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiyot elementlarini keng joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada mintaqalarning iqtisodiy salohiyati ortib, ularning milliy iqtisodiyotdagi ulushi ham sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni innovatsion loyihalarga yo'naltirish mintaqalarni global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuvini tezlashtiradi. Bu esa zamonaviy boshqaruv tajribasi, ilg'or texnologiyalar va investitsiya resurslarini jalb qilish imkonini beradi.

Shunday ekan, mintaqalar rivojida innovatsion investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash, qulay investitsion muhit yaratish va yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Natijada iqtisodiy o'sish barqarorligi ta'minlanadi,

ijtimoiy farovonlik oshadi va mintaqalarning uzoq muddatli rivojlanishiga mustahkam asos yaratiladi.

Innovatsiya (inglizcha . innovationas — kiritilgan yangilik, ixtiro) — 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi<sup>4</sup>.

Innovatsiya — bu mavjud muammo yoki ehtiyojni hal qilish uchun yangi g'oya, texnologiya, mahsulot yoki jarayon yaratish va uni amaliyotga tadbiiq etish demakdir. Oddiy qilib aytganda, innovatsiya — yangilik o'ylab topish emas, balki shu yangilikni hayotga tatbiiq qilib foyda keltirishdir. Innovatsiyaning asosiy belgilar: Yangilik bo'lishi (g'oya, mahsulot, xizmat yoki jarayon). Amaliy qo'llanilishi (faqat nazariya emas, hayotda ishlashi). Iqtisodiy samara berishi (hayotni yengillashtirishi, daromad keltirishi yoki samaradorlikni oshirishi).

Innovatsiya bo'yicha olimlar turlicha ta'kidlashadi. Masalan, S. B. Baldaytsev innovatsiyalarni bozorga mavjud taklif bilan ta'minlanmagan ehtiyojlarni qondiradigan mahsulot olib chiqishga qodir bo'lgan, maxsus ishlab chiqilgan texnologiyaga asoslangan yangi mahsulot liniyasini o'zlashtirish, ekanligini ta'kidlaydi<sup>5</sup>. F. Balenta innovatsiyalarni ishlab chiqarish mexanizmining boshlang'ich strukturasiidagi o'zgarish, ya'ni uning ichki strukturasi yangicha holatga o'tishi; mahsulot. texnologiya, ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchining professional va malakaviy strukturasiiga taalluqli; ham ijobiy, ham salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga ega bo'lgan o'zgarishlar sifatida izohlaydi<sup>6</sup>. Innovatsiya - intellektual mahsulot — ixtiro, axborot, nou-xau yoki g'oya iqtisodiy mazmunga ega bo'ladigan jarayon, degan fikrlar T. Brayanda uchraydi<sup>7</sup>.

O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarga bag'ishlangan turli qonuniy-me'yoriy hujjatlar mavjud. Ular qatorida O'zbekiston Respublikasining 24.07.2020 yildagi O'RQ-630-sonli "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunining maqsadi innovatsion faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat<sup>8</sup>.

Vikipediya mustaqil nashrida keltirilishicha, investitsiya — bu pulni yoki boshqa resurslarni kelajakda ko'proq foyda olish, daromad keltirish yoki aktivlar qiymatini oshirish maqsadida turli loyihalarga, aktivlarga (aksiyalar, obligatsiyalar, ko'chmas mulk, biznes) yo'naltirish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi pulni "ishlatish" va barqaror daromad manbai yaratish, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash va kelajakdagi katta maqsadlarga erishishdir<sup>9</sup>. Ilmiy adabiyotlarda investitsiyalarni iqtisodiy taraqqiyotning asosiy manbai deb hisoblab, uni ishlab chiqarishni kengaytirish va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiluvchi kapital joylashtirish sifatida ham ta'riflanadi<sup>10</sup>. Investitsiya

<sup>4</sup> Vikipediya. Erkin ensiklopediya. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Innovatsiya>

<sup>5</sup> Baldaytsev S. B. Otsen-ka biznesa i innova-tsii. M. : Filin, 19. 97

<sup>6</sup> Balenta F. Upravlenie innovatsiyami. M. : Progress, 1985

<sup>7</sup> Brayan T. Upravlenie nauchnotexnicheskimi novovvedeniyami. M. : Ekonomika, 1989

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-4910391>

<sup>9</sup> Vikipediya. Erkin ensiklopediya. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Investitsiya>

<sup>10</sup> MANBA Adam Smit "Xalqlar boyligi" (The Wealth of Nations)

foйда olishga qaratilgan kapital harakati bo'lib, u milliy daromad o'sishining muhim omili sifatidagi fikrlar ham keng uchraydi<sup>11</sup>.

Investitsiya — bu shunchaki pulni bir joyga qo'yish emas, balki uni ongli ravishda boshqarib, vaqt o'tishi bilan ko'paytirish jarayonidir. Uning mohiyatini chuqurroq tushunsak, bu iqtisodiy qaror qabul qilish, kelajakni rejalashtirish va moliyaviy mustaqillikka erishish vositasi hisoblanadi. Avvalo, investitsiyaning asosiy maqsadi kapitalni ko'paytirishdir. Ya'ni, bugungi mavjud mablag'ni to'g'ri yo'naltirish orqali kelajakda undan ko'proq daromad olish ko'zda tutiladi.

Masalan, oddiy jamg'arma pulni faqat saqlaydi, lekin investitsiya uni ishlatib, qo'shimcha qiymat yaratadi. Shu jihatdan investitsiya passiv emas, balki faol moliyaviy vosita hisoblanadi. Investitsiya jarayonida mablag'lar turli aktivlarga yo'naltiriladi. Bu aktivlarga aksiyalar, obligatsiyalar, ko'chmas mulk yoki yangi biznes loyihalar kiradi. Har bir aktiv turi o'ziga xos daromadlilik va xavf darajasiga ega.

Masalan, aksiyalar yuqori daromad keltirishi mumkin, lekin ularning narxi tez o'zgaradi; ko'chmas mulk esa nisbatan barqaror, ammo katta boshlang'ich kapital talab qiladi. Shu sababli investor o'z imkoniyati va maqsadiga qarab tanlov qiladi. Investitsiyaning yana bir muhim jihati — moliyaviy erkinlikka erishishdir deb ta'kidlaydi mutaxassislar. To'g'ri tashkil etilgan investitsiya portfeli insonni faqat ish haqiga bog'liq bo'lib qolishdan chiqaradi. Bundan tashqari, investitsiyalar inflyatsiyadan himoyalanihga yordam beradi, chunki pul oddiy holatda vaqt o'tishi bilan qadrsizlanadi, investitsiya esa uni qiymatini saqlab qolish yoki oshirish imkonini beradi. Bugungi kunda investitsiya qilish imkoniyatlari ancha kengaygan.

Zamonaviy onlayn platformalar orqali hatto kichik summalar bilan ham turli kompaniyalarga sarmoya kiritish mumkin. Masalan, "Way Invest" kabi platformalar foydalanuvchilarga qulay interfeys va tezkor operatsiyalar orqali investitsiya qilish imkonini beradi. Bu esa ilgari faqat katta kapitalga ega bo'lganlar uchun ochiq bo'lgan bozorlarga oddiy odamlarning ham kirishini osonlashtirdi. Shu bilan birga, investitsiyada diversifikatsiya, ya'ni mablag'larni turli yo'nalishlarga taqsimlash juda muhim hisoblanadi. Barcha pulni bitta aktivga kiritish katta xavf tug'diradi, chunki agar o'sha aktiv qiymatini yo'qotsa, investor katta zarar ko'radi. Aksincha, mablag'ni bir nechta aktivlar o'rtasida taqsimlash umumiy xavfni kamaytiradi va daromadni barqarorlashtiradi. Investitsiya qilishda xavf omilini ham unutmash kerak. Har qanday sarmoya ma'lum darajada tavakkalchilik bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli, investitsiya qilishdan oldin bozorni o'rganish, ma'lumot to'plash va imkon qadar bilimni oshirish zarur.

Bu noto'g'ri qarorlar qabul qilish ehtimolini kamaytiradi. Eng muhimi, investitsiya qilishdan oldin aniq maqsad belgilash zarur. Masalan, uy sotib olish, biznes boshlash yoki pensiya uchun jamg'arma yig'ish kabi maqsadlar investitsiya strategiyasini to'g'ri tanlashga yordam beradi. Maqsadsiz investitsiya esa ko'pincha tartibsiz va samarasiz bo'ladi.

<sup>11</sup> MANBA Devid Rikardo "Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish prinsiplari" (On the Principles of Political Economy and Taxation)

Innovatsion investitsiyalar mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish maqsadida ko'zda tutilgan, infratuzilmani takomillashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, va umumiy iqtisodiy o'sishni ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi.

Quyida innovatsion investitsiyalarning mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'rni va roli haqida aniq faktlar keltirilgan: Ilm-fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari bilan ko'zda tutilib keladi va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri namoyon bo'ladi. Ish o'rinlari yaratish: innovatsion investitsiyalar iqtisodiy faollikni oshiradi va shu bilan yangi ish o'rinlarini yaratadi. Misol uchun, Xitoyda 2000-yillardan boshlab amalga oshirilgan soliq va sarmoya dasturlari natijasida, faqatgina 2015-yilda 10 milliondan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilgan. Iqtisodiy o'sish: Investitsiyalar mamlakat iqtisodiy o'sishiga katta hissa qo'shadi. Jahon Bankining ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda yiliga o'rtacha 6-7% o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun yiliga 20% va undan yuqori darajadagi investitsiyalar kerak.



Investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biri bo'lib, ayniqsa zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda ularning o'rni beqiyosdir. Xorijiy sarmoya kiritadigan kompaniyalar nafaqat kapital olib kiradi, balki ilg'or texnologiyalar, yangi ishlab chiqarish usullari va boshqaruv tajribasini ham olib keladi.

Bu esa mahalliy sanoatning samaradorligini oshirib, uni xalqaro bozorda raqobatbardosh qiladi. Masalan, Janubiy Koreyada Samsung va LG kabi yirik kompaniyalar tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar mamlakat sanoatini tubdan modernizatsiya qilishga xizmat qilgan va Koreyani yuqori texnologiyali iqtisodiyotga aylantirgan. Investitsiyalarni jalb etishda davlat-xususiy sheriklik, ya'ni PPP (Public-Private Partnership) modeli alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu model davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni osonlashtiradi. Masalan, O'zbekistonning Toshkent viloyatida avtomobil yo'llari, suv ta'minoti tizimlari hamda energetika infratuzilmasini rivojlantirishda aynan davlat-xususiy sheriklik asosida katta hajmdagi investitsiyalar jalb qilindi. Bu nafaqat infratuzilmani yaxshiladi, balki hududning investitsion jozibadorligini ham oshirdi.

Shuningdek, ushbu strategiya orqali O'zbekiston, Qozog'iston va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlarida ko'plab yangi ijtimoiy va iqtisodiy loyihalar hayotga tatbiq etildi.

Umuman olganda, har qanday davlat uchun hatto eng kichik investitsiya ham barqaror rivojlanish sari qo'yilgan muhim qadam hisoblanadi. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun investitsiyalarni samarali boshqarish, ularni ustuvor sohalarga yo'naltirish va iqtisodiy tizimning raqobatbardoshligini oshirish zarur.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, iqtisodiy o'sishning barqaror bo'lishi uchun davlatlar investitsiya hajmini muntazam oshirib borishi va iqtisodiy muhitni yaxshilashi lozim. Investitsiyalarning asosiy yo'nalishlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, birinchi navbatda inson kapitaliga kiritiladigan sarmoyalar muhim o'rin tutadi. Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimiga yo'naltirilgan investitsiyalar aholi bilim darajasini oshiradi, mehnat unumdorligini kuchaytiradi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar — transport, energetika va kommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish — iqtisodiy faollikni sezilarli darajada rag'batlantiradi. Innovatsiyalar va texnologiyalar sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar esa sanoatni modernizatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, IT sohasi va raqamli iqtisodiyotga kiritilayotgan sarmoyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, yangi xizmat turlarini yaratadi va iqtisodiyotning yangi yo'nalishlarini shakllantiradi. Shu bilan birga, bugungi kunda "yashil iqtisodiyot" tushunchasi ham dolzarb bo'lib, ekologik toza va energiya tejankor texnologiyalarga investitsiya kiritish nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki atrof-muhitni muhofaza qilishga ham xizmat qiladi. Xorijiy investitsiyalar esa milliy iqtisodiyotga xalqaro tajriba, yangi texnologiyalar va boshqaruv madaniyatini olib kiradi. Bu orqali mamlakat ichki bozorining salohiyati oshadi va global iqtisodiy tizimga integratsiya jarayoni tezlashadi. Natijada iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar yuz beradi, ishlab chiqarish hajmi ortadi va eksport imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston misolida qaraydigan bo'lsak, so'nggi yillarda mamlakatda investitsion faollik sezilarli darajada oshdi. Xususan, 2017–2022-yillar davomida 78 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiyalar jalb etildi va umumiy investitsiya hajmi qariyb 1,5 barobarga oshdi. Ushbu mablag'lar asosan energetika, tog'-kon sanoati, mashinasozlik, elektrotexnika va infratuzilma loyihalariga yo'naltirildi. Natijada mamlakatda erkin iqtisodiy zonalar soni 22 taga yetdi va ko'plab yangi ish o'rinlari yaratildi. Investitsiyalarning asosiy yo'nalishlari ichida energetika va sanoat yetakchi o'rinni egallaydi. Xususan, shamol va quyosh elektr stansiyalari qurilishi, tog'-kon sanoati va to'qimachilik tarmoqlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi ham sezilarli darajada oshib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yangi loyihalarni amalga oshirish imkonini berdi. Bu jarayonda Rossiya, Xitoy, Turkiya, AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlari asosiy investorlar sifatida faol ishtirok etdi. Mazkur investitsiya siyosatining samarasi sifatida infratuzilma sezilarli darajada modernizatsiya qilindi. Minglab loyihalar doirasida yangi korxonalar ishga tushirildi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari keng joriy etildi. Shu bilan birga, O'zbekiston xalqaro iqtisodiy reytinglarda o'z o'rnini mustahkamlab, iqtisodiy erkinlik indeksida yuqorilashga erishdi. Eng muhimi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohaslarida yangi ish o'rinlari yaratilib, eksport salohiyati oshdi.

Innovatsion faollik (birlik)

	2019	2020	2021	2022	2023
Texnologik innovatsiyalar	4427	4011	3936	3409	7530

shu jumladan:

Mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar	3543	3017	3035	1629	4494
Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar	884	994	901	1788	3036
Marketing innovatsiyalar	128	202	145	113	232
Tashkiliy innovatsiyalar	13	77	67	270	233

O'zbekistonda Innovatsion Faollik va Jarayonlarning Dinamik Tahlili (2019–2023)

So'nggi besh yil ichida mamlakatimizda innovatsiyalarni joriy qilish va texnologik yangilanishlar bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Taqdim etilgan statistik ma'lumotlar innovatsiyalarning bir necha asosiy turlari bo'yicha o'sish va pasayish tendensiyalarini ko'rsatmoqda.

1. Texnologik innovatsiyalar: Miqdoriy o'zgarishlar

Texnologik innovatsiyalar umumiy ko'rsatkichlarning eng katta qismini tashkil etadi. 2019-yilda ushbu ko'rsatkich 4 427 tani tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda biroz pasayish kuzatilib, 2022-yilda 3 409 taga tushdi. Biroq, 2023-yilda keskin o'sish qayd etildi va bu ko'rsatkich 7 530 taga yetdi. Bu 2022-yilga nisbatan 2 baravardan ortiq o'sish demakdir.

Mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar: 2019-yilda 3 543 tani tashkil etgan mahsulot innovatsiyalari 2022-yilga kelib 1 629 taga kamaygan bo'lsa-da, 2023-yilda yana tiklanib, 4 494 taga yetdi.

Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar: Ushbu yo'nalishda izchil o'sish kuzatilmoqda. Agar 2019-yilda 884 ta jarayon innovatsiyasi joriy qilingan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu raqam 3 036 tani tashkil etdi (deyarli 3.5 baravar o'sish).

2. Marketing va Tashkiliy innovatsiyalar

Marketing va tashkiliy tuzilmani takomillashtirishga qaratilgan innovatsiyalar ham o'zgaruvchan dinamikaga ega:

Marketing innovatsiyalari: 2019-yilda 128 ta bo'lgan bo'lsa, 2020-yilda eng yuqori nuqtaga (202) chiqdi. 2023-yil yakunlariga ko'ra, bu ko'rsatkich 232 tani tashkil etib, barqaror o'sish yo'liga o'tganligini ko'rsatmoqda.

Tashkiliy innovatsiyalar: Bu sohada eng katta sakrash kuzatilgan. 2019-yilda bor-yo'g'i 13 ta tashkiliy innovatsiya qayd etilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 233 taga yetdi. Bu korxonalarda boshqaruv va ish tashkil qilish tizimi tubdan yangilanayotganidan dalolat beradi.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, 2022-yil innovatsiyalar soni bo'yicha ma'lum bir "pasayish va qayta guruhlanish" yili bo'lgan bo'lsa, 2023-yil barcha ko'rsatkichlar bo'yicha rekord o'sish yili bo'ldi. Ayniqsa, jarayonlar bo'yicha innovatsiyalarning ko'payishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bo'lgan intilish kuchli ekanini ko'rsatadi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsiya va investitsiyalar zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim harakatlantiruvchi omillari hisoblanadi. Innovatsiyalar ilmiy-texnik yutuqlarni amaliyotga joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishga xizmat qiladi hamda iqtisodiy tizimning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Investitsiyalar esa ushbu jarayonlarning moliyaviy asosini ta'minlab, iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan kapitalni shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar va innovatsiyalar o'zaro chambarchas bog'liq jarayonlar bo'lib, ular birgalikda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va mintaqaviy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, xorijiy investitsiyalar zamonaviy texnologiyalar, ilg'or boshqaruv tajribasi va global bozor bilan integratsiyalashuv imkoniyatlarini olib kirib, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston misolida ham so'nggi yillarda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy natijalar bermoqda. 2019–2023-yillar davomida innovatsiyalar samaradorligining sezilarli darajada oshishi, ayniqsa texnologik va jarayon innovatsiyalarining ko'payishi mamlakatda ishlab chiqarish jarayonlari modernizatsiya qilinayotganini va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish bosqichiga o'tayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, marketing va tashkiliy innovatsiyalarning o'sishi korxonalarda boshqaruv tizimlari ham yangilanib borayotganidan dalolat beradi.

Shu bois, kelgusida mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlash uchun innovatsion faoliyatni yanada qo'llab-quvvatlash, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, investitsion muhitni yanada yaxshilash hamda yuqori texnologiyali loyihalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Mazkur chora-tadbirlar nafaqat iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi, balki milliy iqtisodiyotning global iqtisodiy tizimdagi o'rnini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN MANBALAR:**

Vikipediya. Erkin ensiklopediya. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Innovatsiya>

Baldaytsev S. B. Otsen-ka biznesa i innova-tsii. M. : Filin, 19. 97

Balenta F. Upravlenie innovatsiyami. M. : Progress, 1985

Brayan T. Upravlenie nauchnotexnicheskimi novovvedeniyami. M. : Ekonomika, 1989

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-4910391>

Vikipediya. Erkin ensiklopediya. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Investitsiya>

Adam Smit "Xalqlar boyligi" (The Wealth of Nations)

Devid Rikardo “Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish prinsiplari” (On the Principles of Political Economy and Taxation)

Наука и инновации\_2022.pdf (O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI)